



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sotimboyeva Yulduzoy¹
Haydarova Zulfiya²

¹Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

²Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari kafedrasи o'qituvchilarи

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI KICHIK YOSHDAGI
TARBIYALANUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHNING
O'ZIGA XOS USULLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishning o'ziga xos usullari va undan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Nutq, ta'lif, ifoda, talaffuz, fikr, og'zaki, yozma.

Аннотация: В данной статье рассматриваются конкретные способы развития речи воспитанников дошкольных образовательных организаций и способы его использования. Любая речь должна иметь содержание, материал. Чем полнее, богаче, ценнее этот материал, тем содержательнее его повествование. Таким образом, второе условие развития речи учащихся это



материал речевых упражнений и забота о том, чтобы речь учащегося была содержательной.

Ключевые слова: речь, образование, выражение, произношение, мысль, устная, письменная.

Annotation: This article reflects on the specific methods of growing the speech of Educators of preschool educational organizations and ways to use it. Any speech should have content, material. The more complete, rich, valuable this material is, the more meaningful its statement is. Therefore, the second condition for growing students' speech is about the material of speech exercises and is to take care so that the student's speech is meaningful.

Keywords: speech, education, expression, pronunciation, thought, oral, written.

Ta'lism jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko'p jihatdan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog'liq. Maktabgacha ta'lism jarayoni davlatimizning ta'lism-tarbiya tizimida umumiyl o'rta ta'limming dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan, ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda maktabgacha ta'lism jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat.

Maktabgacha ta'limming ilk savodga o'rgatish davridanoq, tarbiyalanuvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi. Tarbiyalanuvchining og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, adabiy tilning o'ziga xos xususiyatini belgilash, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni ravon o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yor va mezonlariga rioya qilish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Tarbiyalanuvchi nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. Ta'lism oluvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi tarbiyalanuvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki



yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq almashinushi yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatlari o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya’ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan til vositalaridan foydalanib, o‘z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarda tarbiyanuvchining faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobjiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Nutqni o‘stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlarini bog‘liq holda uzviy rivojlantiriladi. Bolalarni faollikka o‘rgatish uchun ma’nodosh so‘zlarni topish o‘yinlarini tashkil etish, bunday so‘zlarni nutqda o‘rinli qo‘llashni, gap tuzishda esa so‘zlar orasidagi bog‘lanishga mos turli o‘xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o‘tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so‘zlarning tartibga, ularning bir-biriga bog‘lanishiga, so‘zlar o‘rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o‘qishda izchillikka rioya qilish mashqlarini o‘tkazishga e’tibor beriladi.



Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi.

Nutq - insonga berilgan oliy ne’matlardan biri. Inson besh yoshga to‘lgunga qadar umri davomida ishlatadigan so‘zlarning 90 foizini o‘rganib, so‘zlay boshlaydi. Demak, shu yoshdan boshlab so‘zlarni to‘g‘ri, chiroyli va aniq talaffuz qilish lozim. Buning uchun bolaning dastlabki so‘zlarni talaffuz qila boshlashi bilan nutqiga ahamyat qaratib, tarbiyalab borish talab etiladi.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og‘zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko‘proq yod olishga e’tibor berish mashqlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning yod olish qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘quv dasturida berilgan she‘r namunalarini yoddan aytishda ifodalikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o‘qish talab etiladi. Ya’ni ularda “Nutqiy kompetensiya” elementlarini rivojlantirishimiz kerak bo‘ladi, bular -tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish kabilardir.

Nutq kishining kimligini, psixologiyasini, madaniyatini, kayfiyatini belgilaydi. Shuning uchun chiroyli, odob bilan so‘zlasn barcha zamonlarda qadrlangan.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq mакtabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bobonazarova B, Nitq san’ati - T., O‘zDSI 2004 yil
2. Jumaniyozova R. Nutqiy mahorat (Notiq, nutq, mantiq) – T.: Adolat, 2005yil.
3. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: Akademiya, 2007 yil
4. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta’lim portal